



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV YONDASHUV
ASOSIDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METOD, VOSITA VA SHAKLLARI**

*Kadirova Dildora Nadjatbekovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada bolada kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish lozimdir. Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning estetik tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv haqida so'z yuritiladi. Shuningdek mustaqil fikrlashga o'rgatish muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma va malakalar, kreativ yondashuv, fikrlash, innovatsion fikrlash, mustaqil fikrlash, sifat va samaradorlik, maktabgacha ta'lim, maktabga tayyorlash, kreativ, bola, tafakkur, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ijodiy, estetika, mashg'ulot .

Аннотация: В этой статье указано общие черты процесса развития творческих качеств у ребенка для более полного понимания сущности понятия "креативность" изначально необходимо разобраться в значении. В этой статье рассказывается, как дети дошкольного возраста слово о творческом подходе в развитии эстетического мышления детей . Также обсуждалось обучение самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: образование, воспитание, знания, умения и навыки, креативный подход, мышление, новаторское мышление, самостоятельное мышление, качество и эффективность, дошкольное образование, подготовка к школе, креатив, ребенок, мышление, дошкольная организация, творчество, эстетика, обучение .

Abstract: general features of the process of developing creative qualities in a child for a more complete understanding of the essence of the concept of "creativity", it is initially necessary to understand the meaning. This article describes how preschool children a word about the creative approach in the development of aesthetic thinking of children is being conducted. Teaching independent thinking was also discussed.

Keywords: Education, upbringing, knowledge, skills, creative approach, thinking, innovative thinking, independent thinking, quality and efficiency, preschool education, preparation for school, creativity, child, thinking, preschool organization, creativity, aesthetics, training .

Kreativlik so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Kreativlik bu o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmuidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko'pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda. Emebaylning fikricha kreativlik



muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negiizda noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil – mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borsidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi ilmida bu yoshdagi bolalar ta'limi metodikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'llaniladigan metodlardan qisman farqlanadi. Unda ta'limning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlaridan foydalanish ustuvorlik qiladi.

Metod biror masalani hal etish, maqsadga erishish yo'li sifatida olam va odam sirlarini, tabiat va jamiyat hodisalarini bilish usulidir. Umumiy ma'noda bu tushuncha muayyan maqsadga erishish faoliyatini ma'lum tarzda tartibga solish yo'li sifatida talqin etiladi. O'qitish jarayonining qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, qo'llaniladigan metodlar ta'lim metodlari deb yuritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan har qanday mashg'ulotda tarbiyachi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi kichik guruhdan o'rta guruhga, undan yuqori va maktabga tayyorlov guruhlariga o'tish asnosida ham o'zgarib, murakkab xususiyat kasb eta borishi mumkin. Ushbu jarayonda ayrim metodlardan ko'proq foydalanilsa, ba'zilarini qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgarib turadi. *Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o'zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshadi.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tafakkurni shakllantirishning ko'pgina usullari mavjud. Bunda mashg'ulot jarayonida turli o'yinlardan foydalaniladi. Mashg'ulotni samarali o'tkazish o'z navbatida tarbiyachi pedagogga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. *Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;*
2. *Mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;*
3. *Innovatsion yondashuv va pedagog masalalarining yechimini topishga kreativ yondashish;*
4. *Kutiladigan natija.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, drammatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal



qilish kerak:

- 1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofidagi voqelik haqidagi g'oyalari hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.*
- 2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish.*
- 3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish*

Ma'lumki, ta'lim metodlari – o'quv jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo'lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, faoliyatlarining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa hamda bog'lanishlarni yuzaga keltiradi.

“Ta'lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi, algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir”, deydi P.I.Podlasiy. Olim bu boradagi qarashlarini davom ettirib yozadi: “Ta'lim metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o'nlab ta'lim metodlari ma'lum. Biroq bugun yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya, yagona va o'zgarimas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini ta'kidlab turibdi. O'qitish – favqulodda harakatchan dialektik jarayon. Ta'lim metodlari tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak”. Ko'rinadiki, ta'lim metodlari turg'un hodisa emas va ulardan o'qitishning har bosqichida o'ziga xos va mos tarzda foydalanish mumkin.

Sharqda "Shayx - ul rais" (Olimlar raisi) unvoni bilan mashhur bo'lgan Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan Ali ibn Sinoning (980-1037) "Tadbir ul-manozil" asarida bayon etilgan o'qitish usullari hozirgi davr ta'limotlariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qitishning ko'rgazmali metodlar – kuzatish, ko'rsatmali tasvirlar (rasmlar, diafilmlar, slaydlar, kompyuter dasturlari)ni namoyish etish, namuna ko'rsatish kabi metodlar muhim o'rin tutadi;

Shuningdek, og'zaki metodlar ham bolalarni innovatsion fikrlashga o'rgatishda quyidagilar o'ziga xos ahamiyatga ega. Ularga quyidalar kiradi: hikoya, suhbat, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, savollar bilan murojaat qilish, ko'rsatma berish va tushuntirish; amaliy metodlar safidan – mashq, tajriba, modellashtirish kabi metodlar o'rin oladi.

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etishi, qolganlari esa ayni holat uchun birmuncha samarasiz bo'lishi ham mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud bo'lmagani bois mashg'ulotlarda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin bo'ladi. Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

didaktik maqsadga ko'ra; ta'lim mazmuniga ko'ra; bolalarning ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasiga ko'ra; tarbiyachining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'ra.

Innovatsion ta'lim texnologiyalariga shartli kiritish mumkin bo'lgan, Amerikalik



pedagog va psixolog Dj. Dyui tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ishlab chiqilgan - loyihali ta'limga hozirgi kunda katta ahamiyat berilmoqda [33]. Loyihalar metodida, berilgan pedagogik maqsadlar ilmiy yoki amaliy muammolar detallarini ishlab chiqish usuli hisoblanadi. Bu jarayon yakunida konkret va real natija aniqlanadi. Bu metodning asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarga amaliy vazifa yoki muammolarni hal etish jarayonida turli sohalarga oid bilimlarni mustaqil egallashlariga sharoit yaratib berishdan iborat. Ana shu shart-sharoitlar kasbiy kompetensiya va innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratadi.

“Aqliy hujum” metodi tayyorgarlik, g‘oyalarni yaratish, ularning tahlili va baholash kabi bosqichlari asosida amalga oshiriladi. Qandaydir muammoni hal etish uchun (masalan, faollik, innovatsion fikrlash, dars samaradorligi), odatda, (7-10 tarbiyalanuvchidan iborat bo‘lgan) 2 guruh shakllantiriladi: “g‘oya yaratuvchilar” – o‘z fikrlarini taklif etadilar, “ekspertlar” esa, ularning tahlili bilan shug‘ullanadilar. Guruhlar faoliyatini boshlovchi tashkillashtirib, topshiriqni aniqlaydi, guruhlarni shakllantiradi, g‘oyalarni mustahkamlash vazifalarini ham bajaradi. Asosiy shart esa turli gipotezalarni yaratish va ularni tahlil qilishdan iborat. Bu tarbiyalanuvchilarga innovatsion fikrlash, muammoni erkin tahlil qilish, o‘z fikrini bayon etishga xizmat qiladi. Ba’zi tarbiyalanuvchilarning fikrlari birinchi qarashda, reallikdan uzoqdek tuyulsa-da, asosiysi, bu ularda o‘z imkoniyatlariga ishonish, nostandart fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, va fikrlarini rad etilishidan qo‘rqmaslik kabi hislarni uyg‘otadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotida katta samara beruvchi ko‘rgazmali metodlar sirasiga kirgan navbatdagi metod – kuzatish metodi hisoblanadi. U tevarak-atrofga, borliqdagi hodisalarga diqqat bilan qaray olish, obyektidagi muhimlarni ko‘ra bilish, ularni farqlash, yuzaga keladigan o‘zgarishlarni belgilash, hodisaning kelib chiqish sabablarini aniqlash va xulosalar chiqarishni nazarda tutadi. Bu metod bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda yaxshigina samara beradi. Hamma gap tarbiyachining undan mazkur maqsad yo‘lida oqilona foydalana bilishida. Bolani ilk yoshidan boshlab kuzatishga o‘rgatish, kuzatuvchanlik, kuzatilayotgan hodisaga diqqatini qarata olish, ko‘rganlari asosida fikr yuritish va fikrini o‘z so‘zlari bilan ifodalay olishga yo‘naltirish nafaqat mustaqil fikr egasi, balki ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish maqsadiga ham muvofiqdir. Bolalarning o‘rganilayotgan obyektini bevosita kuzata olishlari, u haqda to‘liq tasavvur shakllanishi va bilish jarayoni idrok etish, xotira, mustaqil fikrlash hamda xayolparastlikni rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish jarayonida xilma-xil fikriy faoliyat: berilgan savolga javob izlash, qiyoslash, taqqoslash singari ishlar tabiiy ravishda amalga osha boradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalanish: qisqa muddatli kuzatish; uzoq muddatli kuzatish; takroriy kuzatish, qiyosiy kuzatish ishlarini amalga oshirish bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning eng samarali usullaridan biridir.

Bolalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltirishda ta’limning tadqiqot metodi ham yaxshi natija beradi. Tadqiqot metodini qo‘llashda tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan



hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi, bolalar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning yechimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydilar. Oldilariga qo‘yilgan masalani yechish davomida bolalar ilmiy bilishning dastlabki shakllarini o‘zlashtirib, tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko‘nikmasi, tajribasini egallay boradilar.

Tadqiqot metodi ham bolalardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni ifodalaydi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira boradilar, izlanadilar va ijodiy fiklashga erishadilar. Natijada bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu metoddan maktabgacha ta‘lim tashkilot mashg‘ulotlarida yoki boshlang‘ich sinflarda foydalanish amaliyotchi tarbiyachi-pedagoglarning fikrlariga ko‘ra bir muncha murakkab hisoblanadi. *Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, kreativlikni faollashtirish usullaridan foydalangan holda tashkillashtirilgan ijodiy o‘yin vazifalari, hayotiy vaziyatlar kreativ o‘yin va mashg‘ulotlardan foydalanish maktabgacha yosh davridagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tarbiyani shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.*

Kreativ tafakkurga ega bo‘lgan bola mashg‘ulotlarni tez o‘zlashtirish, berilgan har bir ta’limiy va tarbiyaviy ta’limotlarni tezda ilg‘ab oladilar va hayotga tatbiq etish xususiyatiga ega bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdanoq kreativ fikrlay oladigan estetik tafakkurga ega bo‘lgan bolalar kelajakda buyuk inson bo‘lib, yetishadilar va o‘z navbatida kelajakda vatani ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Shunday qilib, maxsus ta’lim jarayonida barcha bolalar kreativ va ijodiy konstruktiv muammolarni hal qilishning umumiy tamoyillarini shakllantiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:”O‘zbekiston”, 1993-46 b
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida. T.: 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son).
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O‘zbekiston, 2016.- 56 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. 8.12. 2020 y. 802- son qaror. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan. (Mualliflar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V, Djanpeisova G.E) . -T.: 2018.- 59 b.
6. Abdakimova M.K. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy –pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Diss. ped.fan.nom.-T.: 2004.-176 b
7. Bezrukova M. I., Volkova N. N. Muzeynaya pedagogika v sisteme doshkolnogo obrazovaniya i vospitaniya // Obrazovanie i vospitanie.-2018.-№3.-S.9-11.



8. Vodovozova Ye.N. Umstvennoe i nravstvennoe vospitanie detey ot pervogo proyavleniya soznaniy vozrasta.M.:Librokom, 2012-400 s.
9. Gorbyleva. Ye.V . Vospitatelnye sennosti v pedagogicheskom nasledii . Diss. kan.ped.nauk. Smolensk.: 2002.-199 s.
10. Mamayusupova, D. B., & Gofurov, M. R. (2020). THE CONCEPT OF RELIGIOUS TOLERANCE IN THE PROCESS OF SPIRITUAL FORMATION OF SOCIETY. Theoretical & Applied Science, (6), 253-256.
11. Мамаюсупова, Д. Б. (2021). Теоретико-методические основы и объективная необходимость развития государственно-частного партнерства в Узбекистане. Бюллетень науки и практики, 7(10), 311-321.
12. Мамаюсупова, Д. (2021). Туристик кластерни ташкил қилишда давлат-хусусий шериклигининг концептуал асослари. Экономика и образование, (4), 408-414.
13. Dilovarkhon, M. (2021). Legal Framework for Development of Touristic Potential Based on Public-Private Partnership. Бюллетень науки и практики, 7(5), 356-361.
14. МАМАЮСУПОВА, Д. Б. (2021). БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ. БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 7(10), 311-321.
15. Мамаюсупова, Д. Б. (2019). МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИ ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (16).
16. Ravshanbek, J. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(4), 304-309.
17. O'G'Li, J. R. M. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. Ta'lim fidoyilari, 25(5), 93-97.
18. Jumaboyev, R. M. (2023). METHODOLOGY FOR TEACHING INFORMATION CULTURE TO STUDENTS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 2(8), 126-134.
19. Jumaboyev, R. M. (2023). ANALYSIS OF THE SYSTEM OF GRANTING ACADEMIC AND FINANCIAL INDEPENDENCE TO FOREIGN UNIVERSITIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 135-145.
20. Махамadyusuf o'g'li, J. R. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. Conferencea, 33-37.
21. Jumaboyev, R. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. In International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany.
22. Jumaboyev, R. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. Pedagoglar.



23. Jumaboyev, R. (2021). TEACHING STUDENTS TO CRITICAL THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION. Scienceweb academic papers collection.

24. қизи Алибоева, Н. М., & Хошимов, Д. (2022). Тақлидий сўзларни типологик ўрганиш муаммолари. Science and Education, 3(3), 380-382.